



# **Journal of NATURAL SCIENCE**

<http://natscience.jspi.uz>

**№5/3(2021)**

**biology chemistry geography**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

*dotsenti, kimyo fanlari nomzodi  
DAMINOV G'ULOM NAZIRQULOVICH  
tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan  
onlayn konferensiya materiallari*



**Jizzax-2021**

**ТАХРИР ХАЙЪАТИ**

**Бош мухаррир –**

У.О.Худанов

т.ф.н., доц.

**Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,**

PhD, доц.

**Масъул котиб-**

Д.К.Мурадова

**Муассис-Жиззах давлат педагогика  
институти**

Журнал 4 марта чикарилади

(хар чоракда)

Журналда чоп этилган маълумотлар  
аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар  
масъул

Журналдан кўчириб босилганда манбаа  
аниқ кўрсатилиши шарт

**ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ**

1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.
2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)
3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА
4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya
5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор
6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор
7. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор
8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц
9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.
10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.
11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф
12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.
13. Абдурахмонов F- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц
14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.
15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц
16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.
17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)
18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц
19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)
20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц
21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http/www/natscience.jspi.uz](http://www/natscience.jspi.uz)

**AYDAR-ARNASOY KO’LLAR TIZIMIDA TURIZMNI  
RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI**

*Usmanov Mashrab Rustamovich*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

E-mail: [mashrabusmonov79@gmail.com](mailto:mashrabusmonov79@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish uchun Aydar-Arnasoy ko’llar tizimi, ko’lning turizmdagi o’rni, turistik infratuzilmani yaratishga oid ba’zi bir ma’lumotlar keltirib otilgan.

**Kalit so’zlar:** turizm, ekoturizm, ko’llar tizimi, Aydar-Arnasoy ko’llar tizimi, Baliq ovlash, suv havzalariga sayohat, ornitologik turizm, ekoturizm-rekreatsiya marshruti.

**Аннотация:** В данной статье представлена некоторая информация об озерной системе Айдар-Арнасай, роли озера в туризме, создании туристической инфраструктуры для развития туризма в Джизакской области.

**Ключевые слова:** туризм, экотуризм, озера, озерная система, озерная система Айдар-Арнасай, рыбалка, водное путешествие, орнитологический туризм, экотуризм-рекреационный маршрут.

**Annotation:** This article provides some information on the Aydar-Arnasay lake system, the role of the lake in tourism, the creation of tourist infrastructure for the development of tourism in Jizzakh region.

**Key words:** tourism, ecotourism, lakes, lake system, Aydar-Arnasay lake system, fishing, water travel, ornithological tourism, ecotourism-recreation route.

Yurtimizning betakror tabiat, go’zal landshaftlari, purviqor tog’lari, bepoyon cho’llari, noyob o’simlik va hayvonot dunyosi, ko’p ming yillik tabiiy yodgorliklari har qanday kishini o’ziga maftun etmay qolmaydi. Bu esa yilning to’rt faslida ham o’ziga xos bo’lgan ekosayohatlarni tashkil qilish imkonini beradi. Aytaylik, sayyoohlar yoz oylarida so’lim tabiat bag’riga, tog’ o’rmonlari, tabiiy suv havzalari, cho’l bag’rida paydo bo’lgan ko’llar, tabiat yodgorliklariga jalb etilsa, qish faslida dam olish maskanlari tog’ chang’isi ishqibozlarini chorlaydi.

Mamlakatimizda, 500 ta ko’l mavjud. Ulardan samarali foydalanish, ekologik barqarorligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada bunday hududlar ekotizimi tubdan yaxshilanib, noyob turlarning tabiiy ko’payishi uchun qulay muhit yuzaga kelmoqda. Tuzkon, Arnasoy va Aydarko’ldan tarkib topgan “Aydar - Arnasoy” ko’llar tizimi bular orasida eng yirigi hisoblanadi.

*Bu mintaqa ya’ni Aydar-Arnasoy ko’llar tizimi - Aydarko’l, Tuzkon va Sharqiy Arnasoy ko’llarini o’z ichiga oladigan turg’un ko’llar tizimi. Qizilqum cho’lining sharqida, Chordara suv omborining janubi-g’arbida joylashgan.*

1968-1969 yillarda yog’ingarchilikning ko’p bo’lishi tufayli Sirdaryo oqimining bir qismi Chordara suv ombori va Arnasoy orqali Aydar botig’iga oqizilgan. Shu tariqa tabiatning kamyob hodisasi ro’y beradi: sahro qo’ynida ulkan ko’l hosil bo’ladi.

Aydarko’lning bir tomoni Sharqiy Qizilqum cho’li, yana bir tarafi Nurota tizma tog’lari bilan tutashib ketgan. Maydoni 3702 kvadrat kilometr, uzunligi 350 kilometrdan ortiq. Kengligi 40 kilometrga teng. O’rtacha chuqurligi 10 - 12 metr, eng chuqur joylari 26 - 30, hatto 45 metrgacha ham boradi. Shu bois tabiat oshuftalari unga “Qizilqum bag’ridagi javohir” deya ta’rif berishadi. Ko’lning qimmati shundaki, u Jizzax va Navoiy viloyatlari bioxilmassalligini asrash, hayvonot, nabotot va qushlar dunyosini saqlash, ularning emin-erkin ko’payishi uchun qulay tabiiy muhitni vujudga keltirgan.

Ko’llar tizimi bugungi kunda Jizzax viloyatidagi Oqbuloq, Sangzor daryosining Qiyli va Arnasoya quyilayotgan Markaziy Mirzacho’l tashlamasi oqimi hisobiga to’yinadi.


Bu yerning o’simlik dunyosi ham o’ziga xos bo’lib, nabotot olamining 300 turi, shu jumladan, suv o’tlarining 25 turi ro’yxatga olingan. Ko’llar qirg’oqlari quyuq to’qayzorlar bilan qoplanguani unga yanada maftunkorlik baxsh etib turibdi.

“Aydar - Arnasoy” ko’llar tizimi noyob qushlarni ko’paytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Masalan, yurtimizda qushlarning 463 turi uchrasa, shundan 280 turi Aydarko’l atrofida in qurib, polapon ochadi. Ular orasida O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan qushlarning ko’pligi, ayniqsa, quvonarlidir. Jingalak va pushti saqoqush, qorabuzov, kichik oqqa-ton, vishildoq oqqush, olaqanot shular jumlasidandir. Hovza ekotizimini yaxshilash, hayvonot va o’simlik dunyosining -endemik turlarini saqlab qolish bo’yicha olib borilayotgan keng ko’lamli ishlarning ahamiyati inobatga olinib, 2008 yili “Aydar - Arnasoy” ko’llar tizimiga Ramsar konvensiya kotibiysi tomonidan Xalqaro muhofaza etiladigan ko’llar maqomi berilgani e’tiborga molikdir.

Bu yerning boy o’simlik dunyosi, rang-barang hayvonot olami tabiat shaydolarini o’ziga ohanrabodek tortib keladi. Suv bo’yida maroqli hordiq chiqarish esa ko’lning turistik imkoniyatlari istiqbolli ekanligini ko’rsatmoqda. Shuning uchun viloyat hokimligi sa’y-harakati bilan ushbu hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun 2,2 milliard so’mlik beshta loyiha amalga oshirilayotir. Unga ko’ra, xorijiy va mahalliy sayyoohlarni qabul qilishga mo’ljallangan 150 o’rinli beshta maskan bunyod etiladi. Baliq ovlash, suv havzalariga sayohat, ornitologik

turizm kabi yo’nalishlar bo’yicha xizmat ko’rsatish yo’lga qo’yiladi. Zamonaviy kempinglar va milliy o’tovlarda mazmunli hordiq chiqarish, tuya va otda sayr qilish, qimron tayyorlash jarayoniga guvoh bo’lish va uning ajabtovur mazasini tatib ko’rish sayyoohlarda unutilmas taassurot qoldirishi, tabiiy.

### “Aydarko’lda dam oling” ekoturizm-rekreatsiya marshrutining sxemasi

	Jizzax - Sh.Rashidov - Paxtakor - Do'stlik-Arnasoy avtomobil yo’li orgali	Jizzax - Sh.Rashidov - Forish - Nurota yo’li orqali
--	--	---

Mazkur hududda aholining baliq mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini qondirish, hududda hayvonot va o’simlik dunyosi muhofazasini kuchaytirish, turizm salohiyatidan unumli foydalanish maqsadida hozirgi kunda quyidagi ustuvor yo’nalishlar belgilangan:

- hududda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan biologik resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash;
- tizimning biologik xilma-xilligini saqlash hamda suv havzalarida yetishtirilishi mumkin bo’lgan yangi baliq turlarini baliqchilik sanoatiga kiritish;
- hududga to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda baliqchilik klasterlarini tashkil etish orqali baliq yetishtirish, qayta ishslash, qadoqlash, saqlash va eksport qilishni jadal rivojlantirish;
- Ko’lllar tizimini mamlakatimizdagi baliq chavoqlarini yetishtiruvchi asosiy hududlardan biriga aylantirish;
- havaskor va sport baliq ovi turizmini, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, sayyoohlarga ko’rsatiladigan xizmatlar hajmini oshirish.

Bundan tashqari, viloyatda 2016 - 2019 yillarda umumiy qiymati 15,4 milliard so’mlik 32 ta turizm inshooti bunyod etilishi ko’zda tutilgan. Ana shu izlanishlar natijasida 205 ta ish o’rni yaratiladi. Bu Jizzax viloyatini yaqin yillar

ichida yirik sayyoqlik markazlaridan biriga aylantirish maqsadida olib borilayotgan sa'y-harakatlardir. Zotan, ekoturizmning -rivoji tabiiy resurslardan oqilonan foydalanish orqali hordiq chiqarishga bo'lgan estetik ehtiyojlarni qondiribgina qolmasdan, balki borliqni borligicha asrab, uni kelgusi avlodga bezavol meros qoldirishga mustahkam zamin yaratadi.

Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish uchun Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Zomin qo'riqxonasi, Zomin, Baxmal, Forish, G'allaorol hamda Yangiobod kabi qulay maskanlar mavjud bo'lib, bu mintaqalarda turizmning barcha turlarini tashkil etish va rivojlantirish mumkin. Bu xududlarda o'ziga xos turistik infratuzilmani yaratish nafaqat mahalliy, balki chet ellik sayyoohlarni ham qiziqtirishi shubxasizdir. Bizningcha, mintaqaga turizmini rivojlantirish uchun avvalo:

- mintaqaga turizmini rivojlantirish uchun turistik destinatsiyalarda reklamani kuchaytirish, tadqiqotlarni turizm nuqtai nazardan olib borish;
- kadrlar malakasini turistik nuqtai nazardan xorijiy davlatlarda oshirish;
- xorijiy davlatlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik sayyoqlik firmalar ish faoliyatini o'rganish va hakozo.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Усманов М.Р. Туризм географияси: ўқув қўлланма. - Самарқанд, “СамДУ”, 2020. 45 б. (30-б.)
2. Толибжон ЭРГАШЕВ, “Халқ сўзи” мухбири. “Қизилкум бағридаги жавохир” интернет маълумотлари.
4. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
5. Bekpulatovich, K. B. (2020). The nature of the nurata ridge and its protection. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(10), 651-654.
6. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
7. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
8. Usmanov, M. R. (2021). The Prospective Of The Development Of Ecotourism In Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, 1(01), 8-10.

9. Usmanov, M. (2020). Туризм–иқтисодий ва ижтимоий географиянинг тадқиқод обьекти сифатида. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-5.
10. Холиқулов, Ш., & Ибодуллаев, Қ. (2020). Жиззах вилоятида экологик туризмни ривожлантириш истиқболлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
- 11.Usmanov, M. (2020). Жиззах вилояти сув ресурсларидан фойдаланишнинг географик жиҳатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
12. Холиқулов, Ш., & Мавлонова, С. (2020). Ўзбекистонда туристик имкониятлардан фойдаланишнинг географик жиҳатлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
- 13.Қурбонов, К. (2020). Жиззах вилояти ва унинг ривожланиш истиқболлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 14.Usmanov, M. (2020). Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда “диний туризм” нинг аҳамияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 15.Усманов, М. (2020). Теоретика-методологические вопросы географии экологического туризма. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-4.
- 16.Usmanov, M. (2020). Ўзбекистонни туристик районлаштиришнинг баъзи масалалари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-6.
17. Жиззах вилоятининг табиий сув ҳавзалари ва улардан самарали фойдаланишнинг географик жиҳатлари. J.X.Jumanazar - Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
18. Гаппаров, А. (2021). ПЕРИОДИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В ДЕМОГРАФИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДА ДЖИЗАК. *Журнал естественных наук*, 1(2).
19. Каримов, И. Э., & Абдуллаев, И. Х. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ДЖИЗАКСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 97-100).
- 20.[https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/aydararnasoy\\_kullar\\_tizimi\\_turizm\\_va\\_baliqchilikni\\_rivojlantirish](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/aydararnasoy_kullar_tizimi_turizm_va_baliqchilikni_rivojlantirish)
- 21.[https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/aydararnasoy\\_kullar\\_tizimi\\_turizm\\_va\\_baliqchilikni\\_rivojlantirish](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/aydararnasoy_kullar_tizimi_turizm_va_baliqchilikni_rivojlantirish)